

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 11 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО'ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI	32-38
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> О'ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О'ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O'RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI	81-88

Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич

ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich

ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich

IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna

«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

Кетманов Авазбек Маликович

КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli

MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi

MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
TASNIFI 153-160

Sharipov Komil

MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna

SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
UZBEKISTAN..... 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
XUSUSIYATLARI 197-202

<i>Рахимов Бахромжон Ибрахимович</i> ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i> IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i> CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i> INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLİYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	234-243
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i> XORAZM JADIDLARI MA'NAVİY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI.....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i> XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON " TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVİY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i> FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i> ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i> TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI 382-385

Yuldasheva Nigora Baxodirovna

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI 386-390

Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI 391-396

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Рузметов Хайрулла

ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ
КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ 397-402

Ачилова Лилия Илхомовна

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ
МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА 403-410

Abdubannayev Umidjon

AXBOROTGA BO'LGAN INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING
RIVOJLANISH BOSQICHLARI 411-421

Халиқулов Комолиддин Носирович

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА
ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ 422-427

Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли

ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА
ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 428-433

Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли

ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ
МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ 434-439

Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich

IJTIMOIIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA
QARSHI KURASHISH BO'YICHA HORIIY TAJRIBA 440-446

Алиев Асилбек Кадирович

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ
АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ 447-451

Нодирахон Абдурахманова

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ
АСПЕКТЫ 452-462

Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ 463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Xusanova Mohira

OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI
TAKOMILLASHTIRISH 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODEL 535-539	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODEL 540-545	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024
Accepted: 5 November 2024
Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

POETIC CONSTRUCTION IN 20TH CENTURY AMERICAN REALIST SHORT STORY: A QUESTION OF FORM AND CONTENT

Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna

Associate professor of Bukhara state university

Email: ganiyevaorzigul494@gmail.com

Abstract. Like any literature, the national literature of the USA of the 20th century has its own history of the emergence, improvement and development of the short story genre, development factors, as well as a number of features that stand out on the world stage. The short story belongs to the epic type, covers the range of works between the genres of the story and the novel, the roots of the story genre in the national literature are due to the contribution of sensitive writers such as E. Poe and W. Irving in the era of romanticism, the foundations of the novel genre in the period of enlightenment are C. B. Brown, F. Taking into account that it is directly related to Cooper's services, we can understand that the basics of storytelling did not appear in the 20th century. In this article, we will discuss the characteristics of American realist stories in terms of form and content.

Key words: genesis, universal, structure, epic type, interior, nuclear point, novella

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI

Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna

BuxDu ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası f.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Har bir adabiyotda bo'lgani kabi, XX asr AQSH milliy adabiyotida qissa janrining vujudga kelishi, takomillashuvi va rivojlanishining o'ziga xos tarixi, taraqqiyot omillari hamda jahon arenasida ajralib turuvchi qator xususiyatlari mavjud. Qissa epik turga mansubligi, hikoya hamda roman janrlari o'rtasidagi asarlar turkumini qamrab olishini, hikoya janri ildizlari millat adabiyotida romantizm davrida E.Po, U.Irving singari hassos yozuvchilar hissasiga, roman janri negizlari ma'rifatparvarlik davrida Ch.B.Braun, F.Kuper xizmatlariga bevosita bog'liq ekanini inobatga olganda, qissachilik asoslari ham XX asrda dab-durustdan paydo bo'lmaganini anglashimiz mumkin. Ushbu maqolada Amerika realistik davri qissalari ularning shakl va mazmun jihatdan o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar genezis, umumbashariy, struktura, epik tur, interyer, yadroviiy nuqta, novella

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N50>

Kirish. XX asr AQSH realistik qissachiligi tadqiqiga izchil yondashuv bilan sho'ng'iganimizda, mazkur janr AQSH realistik romanchiligi hamda hikoyachiligi bilan taqqoslaganda, ancha kam e'tibor qaratilgani, bunga bu janrning bahstlab tabiati, struktural jihatdan murakkab tuzilishi hamda retorik-tematik salmoqdorligi kabi omillar tufayli bo'lishi mumkinligi e'tiborimizni tortdi. Fikrlarimizni M.D.Springerning munosabati ham tasdiqlashi mumkin. Olima "Forms of the Modern Novella" tadqiqotini novella janrining o'rganilmagan tabiatiga nisbatan chuqur qiziqishi, novella yoki "qisqa roman" deb ataladigan bunday asarlarni

munosib baholanishi va o'qilishi uchun tayinli javob darkorligini ta'kidlash bilan boshlab, roman janrining ahamiyati, uning strukturaviy elementlari, mazmuniy hamda hissiy jihatlariga daxldor yaratilgan ilmiy ishlar, hikoya janrining ham formal xususiyatlari teran o'rganilgan tadqiqotlar yetarlicha bajarilganini qayd etadi, ammo (*"Curiously, the serious study of the novella remains an almost desert area"*) [6,216]qiziqarli tomoni shundaki, novellaning jiddiy tadqiqi deyarli tashlandiq soha, deb baho beradi. So'nggi yillarda novella, qisqa romanlar – qissa janri tadqiqiga oid qator ishlar olib borildiki, mazkur janrda yaratilgan asarlarning shakliy xususiyatlari, mazmuniy qamrov doirasi, janriy ko'rinishlariga bag'ishlangan tadqiqotlar M.D.Springer, Ch. May. G.Gud, J.H.E.Paine, J.Leibovitz, K.Vidmir, G.Stenli singari olimlar tomonidan olib borildi va bu borada ancha qimmatli mulohazalar hamda xulosalar bildirildi.

Biz ham mazkur janrning boshqa epik turga tegishli shakllaridan farqini o'rganish, aynan XX asr AQSH realistik adabiyotida tutgan ahamiyati, poetik betakror tabiatini nazariy jihatdan tadqiq qilishdan avval mazkur terminlarning asosiy konseptual mazmuniga e'tibor qaratishni lozim topdik. M.H.Abrams *"A Glossary of Literary Terms"* izohli lug'atidan novella termini izohi qidirilganida, bunday izoh mavjud emasligi, garchi novel, ya'ni roman termini italyan tilidagi novella so'zidan ingliz tiliga o'zlashgan bo'lsa ham, qissa haqida ma'lumot olish uchun hikoya bo'limiga o'tish kerakligi ko'rsatilgan. (*"See under short story"* [1,190]deb yozib qo'yilgan). Hikoya bo'limida qissa haqida bunday ta'rif keltirilgan: *"In such long and complex forms as Herman Melville's 'Billy Budd' (1890), Henry James's 'The Turn of the Screw' (1898), Joseph Conrad's 'Heart of Darkness' (1902), and Thomas Mann's 'Mario and the Magician' (1930), the status of middle length between the tautness of the short story and the expansiveness of the novel is sometimes indicated by the name 'novelette', or novella. This form has been especially exploited in Germany (where it is called the **Novelle**) after it was introduced by Goethe in 1795 and carried on by Heinrich von Kleist and many other writers; the genre has also been the subject of special critical attention by German theorists[1,287]"*. Ushbu ixcham, ammo qissaning mo'jazzgina tarixini aks ettirgan ta'rifdan bu janrda yozilgan eng yetuk asarlar Amerika qissanavislari yaratgan *"Billy Budd"*, *"The Turn of the Screw"*, *"Heart of Darkness"*, nemis adabiyotida *"Mario and the Magician"* qissasi ekani; romanning hajman kattaligi hamda hikoyaning ixchamligi orasida o'rtacha hajmga ega bo'ladigan asarlar ba'zida 'novelette' yoki 'novella' deb ko'rsatilishini anglab olish mumkin. Ta'kidlash joizki, qissaning konseptual mazmuni tahlilidayoq, mazkur janr sarhadlarini aniqlash, ma'lum xulosalarga kelishda murakkabliklar mavjudligi kuzatildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qissaning hajmi to'g'risida bildirilgan fikrlar uning roman hamda hikoya o'rtasida mavjudlik kasb etgan bu janr na kichik, na katta epik turga mansubligini ko'rsatib beradi. Janrning ilk ko'rinishlari nemis adabiyotida 'Novelle' shaklida vujudga kelib, urinishlarning dastlabkilari ham asosan shu mamlakatda Gyotening 1975-yilda boshlab bergan izlanishlaridan so'ng olib borildi, H.Kleist va boshqa qator yozuvchilar bu an'analarni davom ettirishdi. Qissa janr sifatida nemis nazariyotchilarining alohida e'tiboriga sazovor bo'lib, ko'plab tadqiqotlar dastavval shu yerda olib borildi. R.Paulsonning *"The Novelette Before 1900"* (1968), M.D.Springerning *"Forms of the Modern Novella"* (1976), M.Swalesning *"The German Novelle"* (1977) asarlari fikrlaimizni tasdiqlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham qissa janriga oid qator ta'riflar keltiriladi. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva *"Adabiyotshunoslik lug'ati"*da qissa *epik turning hikoya va roman qatoridagi uchta asosiy janridan biri, janr xususiyatlari bilan hikoya va roman oralig'idagi hodisa*

deya ta'riflanib, unda qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinadi, deb qayd etishadi[17,388]. Shuningdek, hikoya markazida voqea, roman markazida qahramon vositasida idrok etilayotgan olam, qissa markazida hamisha qahramon turishi ta'kidlanadi. A.Ulug'ov povest romanga qaraganda hajman kichik ekani hamda unda qahramon hayotining muayyan davri tasvirlanishiga[16, 234]urg'u bersa, B.To'rayeva povest – qissa, o'rta hajmli nasriy epik, rivoyaviy janrning bir xili bo'lib, u o'ziga xos belgilariga egaligi, romanga nisbatan kichik, hikoyaga nisbatan kattaroq va murakkabroq bayon shakliga ega janr[14,89]ekanini alohida qayd etadi. Ko'rinadiki, romanlarda muallif qahramon yordamida voqelikga munosabatini, uni qamrab turgan dunyoni tasvirlasa, qissada bevosita shu qahramonning o'zi tasvir fokusiga aylanadi. Tabiiyki, romanda bo'lgani kabi keng voqealar tafsilotlari bilan yoritilmasdan, faqat qahramon atrofida uyushadigan voqealargina bayon etiladi.

Avvalo, qissa janri ta'rifi ba'zi jihatlarga to'xtalib o'tish, nasriy asarlar sirasiga kiruvchi bu janrning alohida qirralari nimada ekanini oydinlashtirib olish, XX asr AQSH realistik qissalarining poetikasini o'rganishimizda asos vazifasini o'tashi mumkinligi anglashiladi. Shu jihatdan olib qaraganda, N.Tamarchenkoning ham ahamiyatli ekani kuzatiladi. N.Tamarchenko qissa (povest) haqida mulohaza yuritir ekan, mazkur janrni bahsli ekanini, novella va hikoyadan farqlab turuvchi struktur xususiyatlarni teranroq o'rganish, ular o'rtasidagi invariant munosabatga oydinlik kiritishni taklif etadi. Darhaqiqat, novella janr sifatida Yevropa adabiyotida Uyg'onish davridan boshlab XVIII asr so'ngiga qadar shakllanib, uning janriy qonunlari jahon adabiyotshunosligida, xususan Gyote g'oyalari ta'sirida nemis adabiyotshunosligida mukammallikga erishdi. Aynan Yevropada vujudga kelgan novellachilik an'analari qissanavislikga asos bo'lganini rad etish mushkul. XIX asr rus materiallari asosida fikrlarini bayot etgan adabiyotshunos, qissa (povest)da *tsiklik syujet sxemasi ustunlik qiladi: tasvirlangan dunyo "do'st yoki dushman" xususiyatlariga ko'ra qarama-qarshi bo'lgan ikki sohadan iborat; syujet qarama-qarshi dunyo kuchlarining barqaror muvozanati va taqdirning holatiga asoslangan, qahramon taqdiri esa asarning boshlang'ich nuqta (voqea joyi, shuningdek dastlabki holati hamda mavqei)dan siljishi va keyinchalik unga qaytishi bilan bog'liq – ham makon-vaqt, ham qimmat nuqtai nazaridan*[13,390], degan xulosaga keladi. Aynan qissa va hikoya (novella) syujetdagi simmetriklik ajralib turishi, hikoyaning strukturaviy prinsipi syujetining asimmetrikligiga, qissaning struktur prinsipi esa teskari simmetriyaga bog'liq ekani anglashiladi.

A. Qozixojayev "Qissa janri xususida" maqolasida qissa janrining genezisi, terminning turli kontseptual xususiyatlari, qamrov doirasi, qissa-roman, hikoya-qissa janrlarining binarlik jihatlari, gibrid janr sifatida janriy chegaralarning muttasil o'zgaruvchan tabiati borasida qimmatli fikrlarini bayon etadi. Munaqqid qissa hamda povest atamalarining garchi tarixiy taraqqiyotida farqlar bo'lsa ham, aynan bir janrning nomi ekanini, *qissa roman bilan hikoya o'rtasidagi katta kichik asarlarni o'z ichiga olishini, uning goh roman tomonga, goh hikoya tarafga og'ishlari, muttasil o'zgarib turishlari, uning tabiatida bor hodisa ekanini*[14,23]ta'kidlaydi.

B.Imomov badiiy adabiyotda inson obrazini yaratish, xarakter qirralari hamda uning poetik talqini borasida fikrlarini bayon etib, aynan asarning janr spetsifikasi, poetikasiga e'tibor qaratish ahamiyati, bu borada nosirning mahorati hamda individual uslubi tadqiqiga oid teran tahlillar keltiradi. Tahlil davomida adabiyotshunos qissa janri, unda yoritladigan muammoning ko'lami hajmiga daxldor mulohazalarini bildirib, unda *yaxlit harakatdan ko'ra epizod va*

holatlarning g'oyaviy maqsadga muvofiq olingan xarakterlarni ochishga bog'liq ravishda birin-ketin kelishi ayricha xususiyat ekani, qissada xarakterni ochishda muallifning bevosita qatnashishi yoki qatnashmasligidan qat'iy nazar, uning ovozi, ruhi, kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashdagi naqlchi "men"i alohida va keng o'rin tutishi[2,123]ni ta'kidlaydi. Darhaqiqat, qissa janriga mansub asarlarda personaj dinamik siljib borib, xarakter maqomini qo'lga kiritar ekan, uning xarakter qirralarini ochib berish bevosita yozuvchining ko'zlagan bosh maqsadi, ifodalamoqchi bo'lgan hayotiy kontsepsiyasini ro'yobga chiqshiga olib keladi. Ko'rinadiki, bu jarayonda badiiy asar muallifi liderlikga erishib, qahramonining badiiy olamda faoliyat doirasiga chuqur kirib borish va tasvirlash orqali turli insoniy munosabatlar, umumbashariy masalalarni tahlil etadi hamda bevosita nuqtai nazarini aks ettiradi.

Qissa janri tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotchilar qatorida J.Leibovitzni ham qayd etish lozim, chunki adabiyotshunos "Narrative Purpose in the Novella" ("Novellaning rivoyaviy maqsadi") asarida XIX asr novellasining taraqqiyoti hamda jadalligi, tematik murakkabligi, takrorlanuvchi strukturasi va uning funktsiyasi singari janriy tabiatiga daxldor masalalarni nemis, ingliz hamda amerika adabiyotida yaratilgan novellalar misolida chuqur tahlil etadi. Bu tadqiqotda ham novella janri ildizlari nemis adabiyotiga borib taqalishi, ammo nasrning bu janri ko'rinishlari ingliz, amerika, ispan, italyan hamda rus nosirlari, frantsuz ijodkorlari ijodida esa qisman kamroq, nisbatan qaraganda ko'proq nemis yozuvchilari ijodida XIX asr o'rtalaridan hozirgi kunga qadar uchrashi qayd etiladi. Novellaning nemis adabiyotidagi novelle shakli boshqa epik tur janrlariga qiyoslaganda kamroq tadqiq etilgani, Amerikada short novel (qisqa roman) deb ta'rif berilishi, bu uning rasmiy nomlanishining o'zgarishiga olib kelgani haqida ham so'z boradi. Yevropa adabiyotida ma'lum muddat ommalashgan novella termini hamda novel atamasi bir oza'kdan chiqqani, har ikkalasi genetik jihatdan bog'liq ekani, angalashiladiki, qissa romanning qisqa shakli (short novel), deb aytishga asoslar borligi oydinlashadi.[5,12].

Muhokama. Epik turga mansub asosiy janrlarga diqqat qaratilsa, roman – qissa – hikoya triosida qissa romanga qaraganda ixchamroq, ammo hikoyaga nisbatan ancha ham shaklan, ham mazmunan salmoqli ekani anglashiladi. Qissaning romaniy fazilati borligi, faqat shaklan ixchamlik kasb etishi haqidagi fikrlarimizni V.Belinskiyning "*Povest ham romanning o'zginasidir, faqat kichik hajmdadir, asarning hajmi esa mazmunning hajmi va mohiyatiga qarab belgilanadi*"[16,140] deya bildirilgan mulohazalari ham tasdiqlaydi, biroq bu qissaning yagona janriy xususiyati emasligini unutmasligimiz darkor. Qissada bosh g'oya aniq bir voqea asosida vujudga kelib, shu asosda shakllanishi, mavzular markaziy nuqta, ya'ni konflikt atrofida uyushishi, tematik kompleks yoki tematik komplekslar guruhini vujudga keltiruvchi turli uyushmalar yordamida kengaytirilishi e'tiborga molik, ammo romanda bu uyushish ancha kengroq bo'lishi, qissada ancha tor trayektoriyani qamrab olishi, ochiqroq aytadigan bo'lsak, qissada faqat bitta ifoda fokusi bo'lishi mazkur janrning yana bir qirralaridan biridir. Biroq bu fikrimiz bahstalar bo'lmasligi uchun, aytish mumkinki, hikoyada ham ifoda fokusi yagona, lekin qissada tasvir imkoniyati hikoyaga qaraganda salmoqdorroq.

Qissaning janriy tabiatiga tegishli qirralardan yana biri – uning o'ziga xos ichki tuzilishga ega bo'lishidadir. Qissaning ichki interyerida voqealarning tubdan burilish nuqtasi mavjud bo'ladiki, shu markaziy nuqta asarning bosh g'oyasi ochilishida negiz vazifasini o'taydi. Odatda bu burilish nuqtalar juda g'ayrioddiy tarzda ro'y beradiki, kitobxon ba'zida kutilmagan bunday holatdan karaxt ahvolga keladi. Adabiyotshunos A.Ulug'ov rus adabiyotidagi povestlar o'zbek

adabiyotidagi qissalar bilan o'xshash tabiatga egaligi, bunday ijod namunalarida *qahramon hayotining ma'lum bir paytdagi voqealar ko'rsatilishi, ular bosh qahramon xarakterini ochishga qaratilishini* ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan yondashganda, A.Ulug'ov hamda B.Imomov hamfikir ekani kuzatiladi. Haqiqatdan ham, qissalarda asosiy qahramon atrofida voqealar aylanib, xarakter xuddi motordek asosiy qismga aylanadi va syujetni kuchga keltiradi, ichki tuzilishda yadroviy nuqtaga aylanadi.

Ch.Neider "Short Novels of the Masters" kitobida kichik nasriy janrlar taraqqiyoti, ularning poetik xususiyatlari, aynan qissa janriga mansub asarlarning takrorlanmas qirralarini kirish qismida tahlil qiladi va munaqqid jahon adabiyotida novella-qisqa roman janri rivojiga yuksak hissa qo'shgan novellanavislar qalamiga mansub eng sara asarlar jamlanmasini keltiradi: H.Melvillning "Benito Cereno", F.Dostoyevskiyning "Notes from Underground", G.Floberning "A Simple Heart", L.Tolstoyning "The Death of Ivan Ilyich", H.Jamesning "The Aspern Papers", A.Chexovning "Ward No.6", T.Mannning "Death in Venice", J.Joysning "The Dead", F.Kafkaning "The Metamorphosis", D.H.Lourensning "The Fox". Ch.Neider antologiyaning kirish qismida nega aynan bu qissalar jamlangani, mualliflarning novella janrida yaratgan ijod namunalarining poetik o'ziga xosligi va ularning badiiy mahorati xususida fikrlarini bayon etadi. Ingliz, nemis, fransuz, rus va amerika adabiyotida mustahkam o'rin egallab, jahon adabiyotida qissa-novella janri haqida so'z borganda, bevosita shu nomlar tilga olinishini ta'kidlagan adabiyotshunos bunday yozadi: "*Hikoya poetik daqiqalar yarata oladi, lekin u xuddi miniatura san'ati singari asosan ixcham shaklga ega va jangovar she'rlar bera olgan qahramonona effekt yoki yoqimli orkestr ruhini baxsh eta olmaydi. Novella esa o'z ustasiga to'liq shunday taassurot uyg'ota olish imkonini beradi. Aynan konsentrasiya hamda aralashuvning muvozanati unga o'ziga xos va jozibali lazzat beradi*[12,13]". Ma'lumki, hikoya qisqa hamda tor shaklga ega bo'lib, ba'zida katta janrlar bera olgan kuchli ta'sirni kitobxonga bera olmasligi, yoki rivoyadagi shiddat kuchining uzoq davom etmasligi o'qirmanning qonoqmasligiga olib kelishi mumkin. Ta'kidlanayotgan ta'rifda esa, novella aynan epik turga mansub o'rta janr sanalib, roman va hikoya janrlarining ba'zi xususiyatlari sintezi unda namoyon bo'lishi, natijada hosil bo'lgan balansdan hosil bo'ladigan zavq, estetik ruh va badiiy lazzat uning poetikasida muhim ekanini tuhsunish mumkin.

J.H.E.Painening "Theory and Criticism of the Novella" tadqiqotida novella janrining turli aspektlari tahlil qilinadi. Adabiyotshunos kichik nasrga mansub terminlar, novella atamasining mazmuni va terminologik kelib chiqishi, qissa janrining ko'rinishlari, shakliy hamda mazmunijihatlariga oid qator qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Nazariyotchi novella janri haqida mulohazalarini bildirib, qissa-novella badiiy dunyoning bir aspektiga keskin diqqat qaratishni maqsad qilishini, ("*concentrates its attention sharply on one aspect of a postulated world*"), unda qat'iy markaziy konflikt, tugallangan shakl va badiiy tejamkorlik bo'lishi shartlilikini ("*it demands*" *central conflict, closed form, and artistic economy*") janr poetikasida ahamiyatli jihatlar ekanini ta'kidlaydi[10,22]. Shuningdek, janr poetikasida eng keng qamrovli qator xususiyatlar qatorida asosiy belgilar mavjudki, ***specific turning point*** (syujetda tub burilish nuqtasi rivoyaning hamma elementlarini o'z atrofida birlashtirib, kitobxonga asarning ta'sir kuchiga ega bo'lishida birlashtiruvchi manba bo'lib xizmat qiladi), ***the new or unheard-of, a central event*** (umumbashariy mavzularga bag'ishlangan, ammo yoritilmagan voqea-hodisaning yangi tafsilotlari asarda keltirilishi, nasrning bu shakli asosan insoniyat dilidagi iztirob va dardlarga malham sifatida shakllantirilishi), ***leytmotiv mavjudligi*** hamda qat'iy

shaklga ega bo'lish kabilar shular jumlasidandir. Qissada markaziy voqea yoki vaziyatning mavjud bo'lishi janrning belgilovchi xususiyati sanalib, bunday asarlar markazida voqea keltiriladi, qahramonlar, detal, obraz hamda harakatlar, turli motivlar faqat shu badiiy voqelik atrofida aylanib, ular asar makrazida kechayotgan holatning yo'nalishiga ta'sir qiladigan kuchga aylanadi. Qissalarda personajlarning shakllanishi, ulardagi u yoki bu fazilat yoki xislatning shakllanishi, paydo bo'lishi haqida bevosita so'z bormay, odatda ular tayyor holda keltiriladi, qahramon dinamikasi konflikt orqali ochilib, hatto qahramonning badiiy voqelikdagi qismatida shu voqea-holatning ta'siri ustunligi kuzatiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish joizki, har qanday janrda yozilgan asarni faqat mazmunan, yoki shaklan o'rganish bu bir yoqlama yondashuv kasb etishi mumkin. XX asr AQSh realistik adabiyotida yaratilgan qissalarning ham qator shakliy o'ziga xosliklar kasb etdi. XX asr Amerika qisqa romanidagi rivoya strukturasi va texnikasidagi tajriba uning mashhurligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Rivoya yo'sini va usullarining eksperimental tabiati qisqa roman shakliga badiiy joziba qo'shdi. An'anaviy rivoya chegaralarini chetlab o'tgan mualliflar o'zlarining innovatsion yondashuvlari bilan e'tiborni tortdilar. Yangi va noan'anaviy rivoya bilan qiziqqan kitobxonlar bunday asarlarga qiziqish uyg'otdi va natijada qiziqish va bu janrning mashhurligi yanada ortdi. Natijada kitobxonlarning dunyoqarashi rivojlanib, ushbu asarlarning intellektual jozibasi an'anaviy rivoya qilishdan tashqari adabiy tajribaga intilayotgan o'quvchilarni o'ziga jalb qildi. Shunday qilib, XX asr AQSH realistik qissalari Yevropa novellalari, rus povestlari, an'anaviy romanchilik hamda hikoyachilikda mavjud qonuniyatlar negizida yaralib, o'ziga xos rivoyaviy strukturasi, yangilik, intellektual va badiiy joziba qo'shib, uning rivojiga hissa qo'shishdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abrams M.H. A Glossary of Literary Terms. – The USA: Heinle & Heinle, Thomson Learning, 1999. – P. 366.
2. Adabiyot va zamon. (Maqola, ocherk, adabiy portretlar). – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – B. 386.
3. Adabiy turlar va janrlar. (Tarixi va nazariyasiga oid). 1-jild. Epos. – T.: "Fan", 1991. – B. 384.
4. Good Graham. Notes on the Novella. P. 147- 163.
5. Khayriddinovna G. O. "EAST OF EDEN" ROMANIDA QAHRAMONLAR XULQ-ATVORIGA JAMIYAT FIKRINING TA'SIRI //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 146.
6. Ganiyeva O. K. H., Rajabova Z. T. The Analysis of Loneliness theme in of Mice and Men //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 31. – C. 157-159.
7. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. JOHN STEINBECK'S "DISCONTENT" OVER THE SOCIAL PROBLEMS //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 23. – C. 146-148.
8. Khayriddinovna G. O., Jahonovna C. M. DESCRIPTION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN PEOPLE AND SOCIETY IN JOHN STEINBECK'S "THE GRAPES OF WRATH" //IEJRD-International Multidisciplinary Journal. – T. 6. – C. 75-78.
9. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. FAMILY RELATIONSHIPS IN JOHN STEINBECK'S NOVEL "EAST OF EDEN" //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 5 Part 4. – C. 247-249.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 11 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).